
TADBIRKORLARGA SOLIQLARNI BO'LIB TO'LASH IMKONIYATI BERILADI



↪Tadbirkorlarga umumiy maydoni 1 000 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan yer uchastkalari, bino va inshootlarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritganda mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha hisoblangan soliqlarni to'lashni 6 oyga kechiktirish huquqi beriladi.

↪Soliqlarni to'lashni kechiktirish mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan 3 oy muddatda soliq organlarini xabardor qilgan va uning to'lanishini ta'minlash (garov) talab etilmagan holda amalga oshiriladi.

↪Er uchastkasi, bino va inshootlar soliq to'lovlarini kechiktirish muddati davomida sotilgan yoki ijaraga berilgan taqdirda, mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha kechiktirish muddati davomida hisoblangan soliq summasi to'liq miqdorda undiriladi.

↪Soliq qonunchiligini buzish xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritilgan tadbirkorlik sub'ektlariga soliqlarni to'lashni kechiktirish taqdim etilmaydi.

Byuroning So'x tuman bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-20 09:43:54